XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 22-oktabr VI-58-222-3-0-K/24 Jizzax viloyati

Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga muvofiq “Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini ishlab chiqish” maqsadida 2023-yil 27-martdagi Jizzax shahar hokimligi va Jizzax politexnika instituti o‘rtasida imzolangan №15-1-14-sonli shartnoma texnik topshirig‘iga asosan Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasi ishlab chiqilgan.

Loyihaning birinchi bosqichida hujjatlarni tahlil qilish ko‘cha o‘lchovlari, ikkinchi bosqichida matematik modelni ishlab chiqish, uchinchi bosqichda maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, to‘rtinchi bosqichda bosqichma-bosqich transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni shakllantirish va beshinchi bosqichda bashoratli modellashtirish va oxirgi bosqich baholash samaradorligi belgilangan.

Jizzax shahrida transport oqimi harakat jadaliligini aniqlash ko‘cha sinov ishlari 9 ta markaziy chorraha hamda 6 ta kardon markaziy ko‘chalar qamrab olinib, transport oqimi harakat jadalligi tarkibini o‘rganishlarida kunning ertalabga soat 7:00 dan kechqurungi soat 20:00 gacha bo‘lgan muddatlarda aniqlangan.

Jizzax shahri va viloyat hududidagi aholi o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra Jizzax shahri va shahar atrofida yashovchi aholi orasidan 2000 dan ziyod respondent ishtirok etgan. Ushbu so‘rovnomada jamoat transportida xizmat ko‘rsatish sifatini baholash to‘g‘risida bir qancha savollar berib o‘tilib, aholi tomonidan tezlik, narx, shinamlik, xavfsizlik, harakat jadvali, yo‘nalishda almashinuvchanlik va o‘tirish uchun joy mavjudligi to‘g‘risida bir qancha savollar berib o‘tildi. So‘rovnoma natijalarga ko‘ra ko‘pgina aholi jamoat transport tizimidan qoniqish hosil qilmagan.

Harakat xavfsizligi ta’sir etish omillar o‘rganilganda avtobuslarni bekatga kirish-chiqish joylarini noqulayligi, yo‘lovchilarni avtobuslarga chiqish davomidagi bekatlardan tashqari hududlarda foydalanishi hamda bir qancha noqulayliklar aniqlangan.

Jizzax shahrida transport tezligini o‘lchash bo‘yicha o‘tkazilgan_tadqiqotlar doirasida tezlikni o‘lchash uchun 17 ta ko‘cha tanlanib olindi va o‘lchash natijalariga ko‘ra ko‘chalarning o‘rtacha tezliklari aniqlangan.

Jizzax shahridagi transport oqim o‘rganilgan 9 ta chorrahaning PTV VISSIM dasturdagi mikromodeli ishlab chiqildi. Chorrahalarning soatlar kesimidagi transport oqimi bo‘yicha joriy holatdagi modeli ishlab chiqildi.

Chorraha misolida samaradorlikni oshirish borasida Sharof Rashidov va Islom Karimov chorrahalarida joriy holatdagi 4 fazali svetofor sikli 3 fazali qilib modellashtirilib bu yerdagi asosiy ko‘rsatkichlar xizmat ko‘rsatish darajasi “E” dan “C” ga, o‘rtacha transport ushlanib qolishi 68 sekunddan 25 sekundga, tirbandlikning o‘rtacha uzunligi 56 metrdan 27 metrga, tirbantlikning maksimal uzunligi 352 mertdan 177 metrga o‘rtacha to‘xtashlar soni 2 dan 1 ga, atmosferaga chiqayotgan chiqindi gazlar va yoqilg‘i sarfi ikki baravarga yaxshilangan.

Jizzax shahar ko‘k bozor hududida harakatni tashkil etish bo‘yicha taklif etilayotgan loyihada ushbu chorraha hududida harakat 2 ta ko‘chada bir tomonli qilib o‘zgartirish natijasida chorrahaning o‘tkazuvchanlik qobiliyati yaxshilanib, o‘rtacha tirbandlik kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga asosan Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat transport boshqarmasining Jizzax shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasi taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar jamoat transporti tarmog‘ini 2024-yilda rivojlantirish Bosh rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Jizzax shahar jamoat transporti tizimi rivojlantirish bosh rejasini amalga oshirish bo‘yicha manzilli dastur 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat Transport boshqarmasi (I.Boqiyev)ga tijorat asosida yo‘lovchilar tashish xizmatini ko‘rsatadigan va bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo‘lgan korxonalar rahbarlari bilan birgalikda jamoat transporti xizmati sifatini oshirish, madaniyatini yuksaltirish, uni bugungi davr va sharoitga moslashtirish, haydovchilarning madaniyatini oshirish, avtobuslar tozaligi borasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

3. Viloyat Transport boshqarmasi (I.Boqiyev), Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Adilov), Jizzax viloyati teleradio kompaniyasi (E.Shermonov), “Jizzax-haqiqati” va "Djizakskaya pravda" gazetasi (B.Nazarov), jamoatchilik vakillarini jalb qilgan holda aholi orasida yangi tashkil etiladigan jamoat transporti yo‘nalishlarining afzalligi, qulayligi, tezkorligi hamda muntazamligini;

jamoat transportida elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishning hamda tabaqalashtirilgan tariflarning afzalliklari va qulayliklarini keng yoritib borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yichadoimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining o‘rinbosari H.Hasanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SALIYEV ERGASH ALIBEKOVICH

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 22-oktabrdagi
VI-58-222-3-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzah shahar jamoat transporti tarmog‘ini 2024-yilda rivojlantirish Bosh rejasi


Kyzyluchkun
Kiyabash
Kara-Yantak
Ravot
Жиззах шаҳар транспорт
Бош режаси макромодели
Links
Type number
Блок
Пешеход
motorway
motorway_link
trunk
primary
secondary
tertiary
unclassified
residential
<= 81
<= 84
4 km

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 22-oktabrdagi
VI-58-222-3-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax shahar jamoat transporti tizimi rivojlantirish bosh rejasini amalga oshirish bo‘yicha
MANZILLI DASTUR

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nomi	Asos	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliya-lashtirish manbayi	O‘lchov birligi (ta, dona, metr)	Talab etiladigan mablag‘ mln.so‘m
Jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish hamda takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar							
1	Jamoat transporti doimiy harakatlanadigan, tirbandlik darajasi yuqori bo‘lgan yo‘l bo‘laklarida alohida avtobus yo‘laklarini joriy etish	Koridorlarda xarakat ishtirokchilari xavfsizligini jamoat transporti xarakat ustuvorligini ta’minlash, transport oqimlarini boshqaruvini joriy etish	Toshkent ko‘chasi-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasidan A.Navoiy ko‘chasi-Shifokorlar ko‘chasi kesishmasigacha xar ikki yo‘nalish bo‘yicha avtobus yo‘laklarini joriy etish	2024 yil 1 iyul		2620 metr	Hisob-kitoblar asosida
			Sh.Rashidov ko‘chasi-Istiqlol ko‘chalari kesishmasidan Sh.Rashidov ko‘chasi-I.Karimov ko‘chasi kesishmasigacha xar ikki yo‘nalish bo‘yicha avtobus yo‘laklarini joriy etish	2024 yil 1 iyul		1690 metr	Hisob-kitoblar asosida
			Mustaqillik ko‘chasi bo‘ylab xar ikki yo‘nalish bo‘yicha avtobus yo‘laklarini joriy etish	2024 yil 1 iyul		3650 metr	Hisob-kitoblar asosida
2	Jamoat transporti raqamlashtirish va aholiga transport xizmatini ko‘rsatishda qo‘layliklar yaratish	So‘rovnoma va yo‘lovchilar oqimini aniqlash, aholiga ko‘rsatiladigan	Shaxar yo‘lovchi transporti bekatlarini yo‘lovchilarga zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni real vaqt rejimida elektron taqdim etuvchi monitorlar bilan jihozlash	2024 yil 30-dekabr	Tadbirkor mablag‘i hisobidan	74 ta	Hisob-kitoblar asosida

		transport xizmatlari taxlili	Muntazam yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashishni amalga oshiruvchi avtotransport vositalarini navigatsiya qurilmalari (GPS/ GLONASS treker) bilan jihozlash;	2024 yil 1-aprel	Tadbirkor mablag‘i hisobidan	160 dona	Hisob-kitoblar asosida
			Jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini joriy qilish;	2024 yil 1-avgust	“ATTO” MChJ mablag‘lari hisobidan	160 dona	Hisob-kitoblar asosida
	Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ini rivojlantirish va ko‘chalar qurish.						
3	Bunyodkor" MFY, A-Sanoat va B-sanoat hududlarini bog‘lovchi Mulkanlik ko‘chasini Yangi tashkil etiladigan avtomobil yo‘lini mukammal ta’mirlash (II-boskich)	Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining monitoringi natijasida	Qurilish loyihalarini loyihachi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqish. Quruvchi pudratchilarni aniqlash. Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2023-2024 yil yakuniga qadar	Respublika budjeti va boshqa manbalar hisobidan	2 000 metr.	7 500
4	4R 38 “M39 avtoyuli (962km) -Uchtepa k-Jizzax sh.-M39 avtoyuli (1013km)” 27-29 km oralig‘ida ikki tomonlama yo‘l harakatini kengaytirish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Qurilish loyihalarini loyihachi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqish. Quruvchi pudratchilarni aniqlash. Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2023-2024 yillar davomida	Respublika budjeti va boshqa manbalar hisobidan	2500 metr	16 000
5	4R 38 “M39 avtoyuli (962km) -Uchtepa k-Jizzax sh.-M39 avtoyuli (1013km)” 10-18,18-22 va 23-25 km oralig‘ida har ikki tomonlama yo‘l harakatini kengaytirish va to‘la ta’mirlash	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari				15000 metr.	52 000
6	4K-253a "Islom Karimov ko‘chasi avtomobil yo‘lida	Transport oqimini o‘rganish va				4 tasmali (700 pm	1-bosqichda 143 946

	M39 "Toshkent-Termiz" avtomagistral yo‘liga" chiqish uchun yangi yo‘nalishdagi 4 km avtomobil yo‘li va 700 p.m.li yo‘l o‘tkazgich qurish (1-bosqich 700 pm yo‘l o‘tkazgich qurish)	mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari				ko‘prik va 4000 metr avtomo-bil yo‘li)	
7	Jizzax shaxri “O‘zbekiston” ko‘chasini Jamoat transporti yo‘nalishlari uchun talab mavjudligi sababli to‘la ta’mirlash	Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining monitoringi natijasida				2 300 metr.	2 852
8	Sangzorkul kesishmasidan Navruzbuloq kesishmasiga yangi ko‘cha qurish va mavjudlarini kengaytirish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2025-2026 yillar davomida		800 metr	39 600
9	Narimonov ko‘chasidan Bog‘don ko‘chasigacha yangi ko‘cha qurilishi va mavjud ko‘chani kengaytirilishi	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2026-2027 yillar davomida		1560 metr	14 820
10	Shifokorlar ko‘chasini Bog‘don ko‘chasi bilan bog‘lash uchun yangi ko‘chalar qurish va amaldagilarini kengaytirish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2027-2028 yillar davomida		2000 metr	31 000
11	Shifokorlar ko‘chasini Xamid Olimjon ko‘chasi bilan bog‘lash uchun yangi ko‘chalar qurish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2028-2029 yillar davomida		1500 metr	35 500

12	Ko‘k bozor kesishmasi ostida yer osti yo‘lini qurish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2026 yil		Hisob-kitoblar asosida	28 000
13	Sh.Rashidov ko‘chasidan kesib o‘tuvchi yer osti yo‘lini qurish (Zebo s2A bekatlaridan)	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2027 yil			8 200
14	Islom Karimov ko‘chasidan kesib o‘tuvchi yer osti yo‘lini qurish (Akvapark)	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2025 yil			7 500
15	Ko‘k bozor kesishmasi harakatlanishni qayta tashkil etish (Bir tomonlama)	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2024 yil			Hisob-kitoblar asosida
16	Orom bozori xududidagi bekatlarni qayta qurish va harakatni tashkil etish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari		2024 yil			340
Jamoat trasportini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar							

17	Arnasoy, Do‘stlik, Mirzacho‘l, Zafarobod va Paxtakor tumanlaridan Jizzax shahriga keladigan yo‘lovchilar hamda tashrif buyuradigan mehmonlarga harakat havfsizligi nuqtai nazardan qulayliklar yaratish maqsadida magistral yo‘llarda qulay transport o‘tish bog‘lamalarini (avtoturargox) tashkil etgan holda Xalqaobod maxallasi xududidagi avtoshoxbekatni to‘liq ta’mirlash.	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Belgilangan tartibda rekonstruksiya qurilish ishlarini amalga oshirish.	2024 yil yakuniga qadar	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobi dan	1 ta	200
18	Shaharga kirib keluvchi magistral yo‘llarda qulay transport o‘tish bog‘lamalarini (avtoturargox) qurish. Jizzax shaxar Nurliobod maxallasi xududida joylashgan mavjud avtoturargoxni rekonstruksiya qilish.	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Aholi, yo‘lovchilar va tashrif buyurgan mehmonlarga harakat havfsizligi nuqtai nazardan qulayliklar yaratish maqsadida avtoshoxbekatni belgilangan tartibda rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish.	2024 yil 1-noyabr	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobidan	1 ta	400
19	Jizzax shahrining shimoliy qismidan AShB qurish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2025 yil	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobidan	1 ta	4 500

20	Jizzax shahrining g‘arbiy qismidan AShB qurish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2026 yil	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobidan	1 ta	4 800
21	Jizzax shahrining janubiy qismidan AShB qurish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2027 yil	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobidan	1 ta	5 100
22	Jizzax shahrining sharqiy qismidagi mavjud Jizzax AShB faoliyatini tiklash	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Belgilangan tartibda qurilish ishlarini amalga oshirish.	2024 yil	Bank krediti va Tadbirkorlar mablag‘i hisobidan	1 ta	4 000
23	Jizzax shahar ichi jamoat transprti marshrutlarini qayta tashkil etish	Aholi harakatchanligi va yo‘lovchilar oqimini o‘rganish hamda makra mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Jizzax shahar ichida aholiga sifatli transport xizmatini ko‘rsatish uchun 17 ta shahar ichi avtobus yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqib, optimallashtirilgan 14 ta avtobus yo‘nalishlarini joriy etish.	2024 yil 1 sentabr	Mablag‘ talab etilmaydi	14 ta avtobus yo‘nalishgi	
		So‘rovnoma va yo‘lovchilar oqimini aniqlash, aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatlari taxlili	“Bosh reja”ga asosan 14 ta shahar ichi va 20 ta yetkazib beruvchi shahar atrofi jamoat transporti yo‘nalishlarini tashkil etish	2024 yil 1 sentabr	Mablag‘ talab etilmaydi	14 ta avtobus yo‘nalishgi	

24	Shahar ichi avtobus yo‘nalishlarida aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmati darajasini oshirish	So‘rovnoma va yo‘lovchilar oqimini aniqlash, aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatlari taxlili	Shahar ichi avtobus yo‘nalishlarida aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatadigan MChJlarni brutto kontrakt tizimiga o‘tkazish	2024 yil 1oktabr	Respublika budjeti va boshqa manbalar hisobidan	14 ta avtobus yo‘nalishgi	Hisob-kitoblar asosida
		So‘rovnoma va yo‘lovchilar oqimini aniqlash, aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatlari taxlili	Har-bir yo‘nalishning tannarxi asosida tashuvchi tomonidan sifatli xizmat ko‘rsatish uchun Jizzax shahri aglomerasiyasi hududida barcha jamoat yo‘lovchi tashish transporti turlari uchun yangi tariflar “Menyu”sini (Talaba, o‘quvchi, nafaqaxo‘r, nogiron, oddiy yo‘lovchilarga alohida va Differensial) ishlab chiqish va joriy etish.	2024 yil 1 sentabr	Mablag‘ talab etilmaydi	14 ta avtobus yo‘nalishgi	
25	Avtobus oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish	So‘rovnoma va yo‘lovchilar oqimini aniqlash, aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatlari taxlili	Shaxar ichi avtobus yo‘nalishlarining oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish	(Reja grafik asosida)	Tadbirkor mablag‘i hisobidan	570 ta	28 500
			Avtobus oraliq bekatlarini nomlash	2024 yil 1-iyul	Mablag‘ talab etilmaydi		
Cheklangan harakat tezligini joriy etish							

26	Jizzax shahar hududida O‘zbekiston, Sharof Rashidov, I.Karimov, Istiqlol, Sayiljoyi, A.Navoiy, Toshkent ko‘chalari hududlarida maktab va bog‘cha inshootlari oldida cheklangan tezlik yo‘l belgilarni o‘rnatish.	Transport va piyodalar oqimlarini o‘rganish, harakat xavfsizligini ta’minlash va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Yo‘l infratuzilmasining jozibadorligi, shahar ko‘chalarida xarakat havfsizligini ta’minlash	2023-yil yakuniga qadarda	Boshqa manbalar hisobidan	27 824 metr oralig‘i uchun 35 ta nuqtada cheklangan harakat tezligi yo‘l belgilarini o‘rnatish.	35
To‘xtash va to‘xtab turishni ta’qiqlash							
27	Jizzax shahar hududida O‘zbekiston, Sharof Rashidov, I.Karimov, Istiqlol, Sayiljoyi, A.Navoiy, Toshkent ko‘chalari hududlarida to‘xtash va to‘xtab turish ta’qiqlanadi yo‘l belgilarini o‘rnatish.	Transport oqimlarini o‘rganish natijasida va harakat xavfsizligini ta’minlash uchun	Shahar ko‘chalarida tirbandliklar oldini olish hamda xarakat havfsizligini ta’minlash	2023-yil yakuniga qadarda	Boshqa manbalar hisobidan	27 739 metr oralig‘i uchun 10 ta nuqtada yo‘l belgilari o‘rnatish.	6
Chorrahalarda tirbandlikni bartaraf etish va harakatni tashkil etish							
28	"Sh.Rashidov-Shifokorlar" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘ lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	Hisob-kitoblar asosida
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			Sh.Rashidov ko‘chasi viloyat hokimiyati tomonidan kelishda 4 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish chapga yo‘l belgisini, 3 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish to‘g‘riga yoki chapga yo‘l belgisini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		2 ta	

			Shifokorlar ko‘chasi jamoat salomatligi texnikumi tomonida 3 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish chapga, 2 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish o‘ngga yoki chapga yo‘l belgisini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		2 ta	
29	"I.Karimov-Shifokorlar" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘ lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	Hisob-kitoblar asosida
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			Shifokorlar ko‘chasi Soliq boshqarmasi tomonidan kelishda 1 yo‘l tasmasida 5.8.2 harakatlanish o‘ngga, 2 yo‘l tasmasida 5.8.2 harakatlanish to‘g‘riga yoki chapga, 3 yo‘l tasmasida 5.8.2 harakatlanish chapga yo‘l belgilarini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		3 ta	
30	"I.Karimov-Sh.Rashidov" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Chorrahada adaptiv svetoforlarni o‘rnatish	2025-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	8 ta	
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	Hisob-kitoblar asosida
31	"I.Karimov-Baynalmilalchilar-O.Saidnosirov" (Agrobank) chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘ lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			I.Karimov ko‘chasi JizPI tomonidan chorrahaga kelishda 3.19 qayrilishni ta’qiqlash yo‘l belgisini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		1 ta	

			Baynalmilalchilar ko‘chasi Markaziy bank tomonidan chorrahaga kelishda 3.19 chorrahada qayrilishni ta’qiqlash yo‘l belgisini o‘rnatish, chorrahaga yetmasdan qayrilib olish uchun 5.11.1 qayrilib olish joyi yo‘l belgisini o‘rnatish va qayrilib olish joyini ochish	2024-yil 1-iyul		50 m, 2 ta	Hisob-kitoblar asosida
			O.Saidnosirov ko‘chasi O‘ratepalik mahallasidan chorrahaga kelishda o‘ngga burilish uchun qo‘shimcha tasma yo‘lini ochish	2024-yil 1-iyul		50 m	
32	"Toshkent-I.Karimov" (Jibriy) chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	Hisob-kitoblar asosida
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			Chorrahadan I.Karimov ko‘chasiga kirishda 3.27 to‘xtash ta’qiqlangan yo‘l belgisini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			I.Karimov ko‘chasidan chorrahaga kirishdagi 2 tasmali yo‘lni, qarama-qarshi yo‘l kesimining 1 tasmasi evaziga 3 tasmali yo‘lga o‘zgartirish	2024-yil 1-iyul		100 m	
33	"I.Karimov-Qaliya" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘ lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	Hisob-kitoblar asosida
			Chorrahada optimal svetafor siklini joriy qilish	2024-yil 1-iyul		1 ta	
			I.Karimov ko‘chasi Xotira hiyoboni tomonidan chorrahaga kelishda yo‘lning 4 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish chapga yo‘l belgisini, 3 yo‘l tasmasiga 5.8.2 harakatlanish to‘g‘riga yoki chapga yo‘l belgisini o‘rnatish	2024-yil 1-iyul		2 ta	

			I.Karimov ko‘chasi Xotira hiyoboni tomonidan chorrahaga kelishda 3 tasmali yo‘lni, qarama-qarshi yo‘l kesimining 1 tasmasi evaziga 4 tasmaliga o‘zgartirish	2024-yil 1-iyul		100 m	
34	"Sh.Rashidov-A.Navoiy" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Xarakatni tashkil etishni takomillashtirish	2024-yil 1-iyul	IIV JXX YHXB mablag‘lari hisobidan alohida hisob-kitoblar asosida	1 ta	Hisob-kitoblar asosida
			Chorrahada adabtiv svetaforlarni o‘rnatish	2025-yil 1-iyul		8 ta	
			Sh.Rashidov ko‘chasidan A.Navoiy ko‘chasiga o‘ngga burilish uchun qo‘shimcha karman yo‘lini ochish	2024-yil 1-iyul		50 m	
			A.Navoiy ko‘chasidan Sh.Rashidov ko‘chasiga o‘ngga burilish uchun qo‘shimcha karman yo‘lini ochish	2024-yil 1-iyul		50 m	
35	"Sh.Rashidov-N.Qushoqov" chorrahasida tirbandlikni bartaraf etish	Chorrahada transport oqimlarini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Jizzax viloyati ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish boshqarmasi ko‘chasini yengil avtomobillar uchun ochish	2025 yil		385 m	Hisob-kitoblar asosida
			Jizzax viloyati ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish boshqarmasi ko‘chasini bir tomonlama yo‘nalishli harakatni tashkil etish	2025 yil		385 m	Hisob-kitoblar asosida
36	Ko‘k bozor kesishmasida tirbandlikni bartaraf etish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Ko‘k bozor kesishmasi harakatlanishni qayta tashkil etish (Bir tomonlama)	2024 yil			Hisob-kitoblar asosida
37	Orom bozori atrofida tirbandlikni bartaraf etish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Orom bozori xududidagi bekatlarni qayta qurish va harakatni Do‘stlik tumanidan kirib kelishda bozor hududida avtobus harakatini asosiy yo‘ldan tashkil etish	2024 yil			Hisob-kitoblar asosida

38	Jizzax shaxri ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida tirbandlikni bartaraf etish	Transport oqimini o‘rganish va mikromodel orqali olingan tahliliy natijalari	Ko‘cha-yo‘l tarmogiga avtomobillar yuklamasini kamaytirish uchun tashkilotlarning ish faoliyatini moslashuvchan ish rejimiga o‘tkazish	2026 yil			Mablag‘ talab etilmaydi